



KOREYS TILINI HANJALAR ASOSIDA SAMARALI O'RGANISH USULLARI EFFECTIVE METHODS FOR LEARNING KOREAN THROUGH HANJA

Toshboyeva Durдона Fayzi qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15084029>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 20- Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 25- Mart 2025 yil

KEY WORDS

hanja, hangeul, so'z boyligi, ierogliflar, til o'rganish, sino-koreys so'zlari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada koreys tilini o'rganish jarayonida hanjalarning ahamiyati muhokama qilinadi. Hanjalar orqali so'zlarning etimologiyasini tushunish va murakkab atamalarni tezroq o'zlashtirish mumkinligi ilmiy asoslar bilan izohlanadi.

Hanja xitoy ierogliflariga asoslangan koreys yozuvidir. Qadimda koreyslar davlat ishlarida, san'at va din sohalarida ish yuritishda xitoy ierogliflaridan tashkil topgan qadimgi koreys tilidan foydalanishgan. Lekin ular ham o'zining milliy yozuvi bo'lishini va u orqali ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda keng muomalada bo'lishini xohlashgan. Bu tarixiy voqea 1443-yili qirol Sejong davrida sodir bo'ldi. Choson sulolasi vakili qirol Sejong 1443-yilda koreys alifbosini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Buning sababi, xitoy ierogliflarini o'rganish faqat yuqori qatlamga xos bo'lganligi, hamda o'rganishga murakkab bo'lganligi uchun va natijada savodxonlik tushib ketayotganligi va uning oldini olish maqsadida hangeul yaratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholining yosh-u qari, ayol-u erkagi, katta-yu kichigi hamma teng ravishda savodli bo'lishidir. Janubiy Koreya hukumati tomonidan milliy yozuv tizimidan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. **1945-1951-yillar** – faqat hangil (한글 전용) [hangil chonyon]dan foydalanish;
2. **1952-1964-yillar** – hangil va xitoy ierogliflaridan parallel foydalanish (한자 병용) [hanchcha pyonyon];
3. **1965-1969-yillar** – ierogliflarning aralash qo'llanilishi (한자 혼용) [hanchcha hon'yon];
4. **1970-1974-yillar** – koreys alifbosidan eksklyuziv foydalanish bo'yicha ikkinchi harakat;
5. **1975-yildan hozirgi kungacha** – hangil va hanchchadan parallel foydalanishning takroriy urinishlari.

Biroq, 1975-yildan boshlab Janubiy Koreyada hanchchanning ishlatilishi sezilarli darajada qisqardi va hozirgi vaqtda rasmiy hujjatlar hamda ta'lim tizimida asosan faqat hangil qo'llaniladi[1]. Bu an'ana 1894-yilga kelib, hangeul birinchi marta rasmiy hujjatlarda paydo bo'lishi bilan sekin-asta yo'qolib bordi. 1896-yildan esa koreys xalqi orasida joy qoldirib

yoziqni boshlagan[2]. Ilgari koreys xalqi bo'g'inlarni alohida tepadan pastga qilib yoziq, lekin so'zlar ajratilmaganligi xitoy tili an'anasi bo'lgan.

Hanja uzoq vaqt davomida yoziq tizimi sifatida qo'llanilgani koreys lug'at boyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U faqat yoziq tizimi emas, balki ko'plab yangi so'zlarning kiritilishi va shakllanishi uchun ham asos bo'lgan. Yangi so'zlar yoki tushunchalar odatda ikki yoki undan ortiq hanjaning birikmasidan hosil qilingan. Masalan, "nikoh" ma'nosini anglatuvchi gyeol-hon (결혼) so'zi ikki hanjadan iborat: birinchisi "bog'lash, uyg'unlik" ma'nosini bildirsa, ikkinchisi "turmush qurish" degan ma'noni anglatadi. Bu yangi so'zlar yoziqda qolib ketmay, balki so'zlashuv tiliga ham kirib kelgan. Har bir hanjaning o'ziga xos fonetik talaffuzi bor bo'lib, u odatda bir bo'g'indan iborat. Aksariyat hanjalarning faqat bitta talaffuzi bo'lsa-da, ayrimlari ikkita yoki undan ko'p talaffuz variantiga ega [3]. Masalan, "suv" ma'nosini anglatuvchi su (수) hanjasi turli so'zlarda uchraydi: "suzish" (suyeong / 수영), "suv bosimi" (su-ap / 수압) va "suv osti" (su-jung / 수중). Bunda tushunishga oson bo'lishi uchun hanjaning fonetik talaffuzini hanja bo'g'ini deb atash mumkin. Hanjaning talaffuzi ko'pincha u koreys tiliga kiritilgan davrdagi xitoycha talaffuz asosida shakllangan bo'lib, koreys tilidagi mos tushunchaning ona tilidagi so'zi bilan bog'liq emas [4]. Masalan, "suv" uchun ona tilidagi so'z mul (물) so'zi ishlatiladi, su (수) esa faqat murakkab so'zlar tarkibida uchraydi. Shuning uchun o'rta darajadan yuqori darajaga o'tmoqchi bo'lgan har qanday o'rganuvchi uchun sino-koreys so'zlarini o'rganish juda muhim hisoblanadi [5]. Ayniqsa, xalqaro koreys tili ko'nikmasini baholovchi testlardan yuqori natijani qo'lga kiritmoqchi bo'lgan o'quvchilarga hanjalarni mukammal tarzda o'rganish tavsiya qilinadi. Ayrim tilshunoslarning fikricha, sino-koreys so'zlari koreys tilidagi umumiy so'zlarning 54%ini tashkil etadi [6]. Bu shuni anglatadiki, koreys tilini o'rganayotgan har qanday kishi yuzlab sino-koreys so'zlariga duch keladi.

Hanjalarni samarali o'rganish yo'li bu – hanjalarni o'rgatuvchi maxsus kitoblar. Bunga "Korean Hanja for Foreigners" va "Useful Chinese Characters for Learners of Korean" [7] kabi kitoblar kiradi. Tadqiqotchi Isaac Muscantoning koreys tilini o'rganishdagi tajribasi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. U: "men hanjalarning yoziqlashini o'rganishga harakat qildim, lekin ularni kundalik hayotda ishlatishimga ehtiyoj yo'qligi sababli bu mashg'ulotni tark etdim, lekin qanchalik chuqur o'rganganish xohlaganim sari bu yo'lga yana qaytdim. Hanjalarni Useful Chinese Characters for Learners of Korean [8] kitobi orqali o'rganishni boshladim. Kitobda bir necha yuzta keng tarqalgan hanja, ularning talaffuzi, yoziqlash tartibi va ushbu belgilar ishtirok etgan koreys so'zlari berilgan edi. Shunday qilib, men hanja bo'g'inlarini koreys tilini o'rganish jarayoniga qo'shdim. Yangi sino-koreys so'zlariga duch kelganimda, agar hanja ishtirok etgan so'zlarni tanimasam, ularni lug'atdan izlab topardim, lekin bu jarayon ancha ko'p vaqt talab qilardi. Shu sababli, men hanjalarni astoydil o'rgandim", – deydi. Darhaqiqat, sohaviy so'zlarni oson tushunish uchun albatta, hanjalar muhim rol o'ynaydi. Birgina hanjaning ma'nosini bilib turib, butun boshli so'z yokida gapning ham ma'nosini chiqarsa bo'ladi. Bu esa o'z-o'zidan vaqtni tejaydi. Yana bir yaxshi tomoni murakkab so'zlarni qiynalib yodlashga hojat qolmaydi va o'quvchining til o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Inglizlar aytishganidek, "don't work hard, work smart". So'zlarni bittalab yodlab chiqqandan ko'ra, oqilona yo'l

bilan hanjalar orqali o'rgansa ancha oson va samarali bo'ladi. Til o'rganish jarayonini qiziqarli ham qilib beradi. Ayniqsa, tahliliy fikrlovchi talabalarga so'zlar o'rtasidagi bog'liqliklarni izlab o'rganish ancha qiziqarli va foydali bo'ladi.

Zamonaviy koreys tili hanguel yozuv tizimidan foydalanadi. Koreyada uchraydigan deyarli barcha yozma materiallar, jumladan, belgilar, matnlar va kitoblar hangeulda yozilgan bo'lib, hanja juda kam ishlatiladi. Ular faqat ayrim sohalarda, malasan, huquq va akademiyada uchraydi. Shuning uchun koreys tilini o'rganayotganlar hanjalarning yozilishini bilishga majbur emaslar. Biroq bu sino-koreys so'zlari bilan bog'liq muammoni keltirib chiqaradi. Agar matn hanja bilan yozilgan bo'lsa, har bir bo'g'inning ma'nosi aniq bo'ladi. Ammo hangeul bilan yozilganda, bo'g'inning ma'nosi darhol tushunish qiyinlashadi, ayniqsa sino-koreys so'zlari orasidagi ommaviy homofonlar tufayli [9]. Masalan, su (수) bo'g'ini faqat "suv" ma'nosini emas, balki "himoya qilish", "bosh", "raqam" va "qo'l" ma'nolarini ham anglatishi mumkin. Shuning uchun ham hanja o'rganish har taraflama asqotadi.

Xulosa qilib aytganda, koreys tili lug'at tarkibining katta qismini xitoycha kelib chiqishga ega bo'lgan so'zlar tashkil etadi. Bu so'zlar (xitoy ierogliflari) orqali yozilganida, ularning ma'nosi aniqroq tushunilsa-da, zamonaviy koreys tili faqat hanguel (fonetik yozuv) asosida yozilganligi sababli, sino-koreys so'zlarining ma'nosini anglash qiyinlashadi. Ayniqsa, hanja asosidagi ko'plab so'zlar o'zaro homofon bo'lib, ularning talaffuzi bir xil bo'lsa-da, ma'nolari turlicha bo'lishi mumkin. Ushbu maqola matni hanja asosidagi bo'g'inlarni o'rganish orqali sino-koreys so'zlarini yaxshiroq tushunish va eslab qolish imkoniyati borligini ilgari suradi. Til o'rganish jarayonida hanja asosidagi bo'g'inlarni bilish so'zlarni tahlil qilish va ularga bog'liq so'zlarni xotirada mustahkamlashda yordam berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu uslub sino-koreys so'zlarining tuzilishini tushunish va yangi so'zlarni eslab qolishda katta foyda berishini ko'rsatib o'tdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guryanova, D.D., Kanamatova L.R. Using Hanja in modern Korea // The Journal of Direction and Development of Korean Studies in Russia. 2021. Vol. 2, N3. P. 13-17
2. Muxammedova F. Yosh sharqshunoslar anjumani. T., 2023
3. Sohn, H. Korean in contact with Chinese // In Korean language in Culture and Society. – Honolulu, HI: University of Hawai press, 2006. – pp. 44-56.
4. Song, J. The Korean language // Structure, use and context. – New York: Routledge, 2005.
5. Jung, M., & Cho, Y. M. Y. Chinese Character Education in Teaching Korean as a foreign language // A New Paradigm of Cognitive Expansion (왜국어로서 한국어 교육에서 한자 교육의 문제점과 개선방향). – The Korean Language in America, 2006. – 11, pp.64-83.
6. Xamidova, D. Koreys tilidagi o'zlashma so'zlarning etimologik va semantik xususiyatlari // Oriental renaissance: Innovative, educational natural and social sciences, 2021. – pp.278-284.
7. Isaac Muscanto. Studying Hanja-Based Syllables Improves Korean Vocabulary Retention // conservancy.umn.edu, 2019.